

Yom Sansop hikoyalarida yolg'izlik motivi

Muslimova Shahnoza Sunnatovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: XIX asrdan boshlab yolg'izlik motivi asarlarda yangi mazmun kasb etdi. XX asrning birinchi yarmida esa koreys jamiyatida begonalashuv davrning o'tkir muammosiga aylandi. Yangi mazmunda insonning yolg'izlanishi begonalashuv bilan bog'liq psixologik holatni aks ettirdi. Yom Sansop hikoyalarida yolg'izlik umidsizlik, chorasizlik, tolesizlik bilan bog'liq hodisa shaklida qo'llanildi. Shaxsning jamiyatdan begonalashuvida adib mazkur davrga o'z bahosini beradi. Vatan oldidagi burchini bajara olmagan yoshlarning irodasi zaiflashdi, shu sababli ular inson sifatida o'z qadr-qimmatlarini ham yo'qotdilar.

Kalit so'zlar: yolg'izlik umidsizlik, chorasizlik, tolesizlik, begonalashuv, tajribaxona, o'lim, hayot, vatan, o'zga yurt

Dunyo xalqlari adabiyotida jamiyat va inson muammosi hamisha yetakchi mavzuni egallaydi. Shu jihatidan kelib chiqib yaratilgan asarlarda insonning jamiyatdan begonalashuvi, odamlardan chetda qolishi, yolg'izlanib yashashi fojiaiy tarzda aks ettiriladi. Adabiyotshunos olim M. Xolbekov bu masala yuzasidan shunday fikr bildiradi: "XX asrning ziddiyatli va shavqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30-yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarining birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi"¹. XX asr boshida G'arb adabiyoti va san'atidan ta'sirlangan koreys ijodkorlari, xususan, Yom Sansop hikoyalarida ham bu masala bo'y ko'rsatdi. Aslida yolg'izlikning ikki jihati mavjud: birinchisi, inson o'zligini yo'qotadi, ikkinchisi, inson o'zligini anglab yetadi. Jahon adabiyotida yolg'izlik mavzusi ijobiy va salbiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

¹ Хамдамов У. Ёлғизлик. – Т: "Янги аср авлоди", 2019. – Б. 10.



“Yolg‘izlik, bir tomondan, odamning boshqalar bilan zarur aloqalarni o‘rnatishiga to‘sqinlik qiladigan umidsizlik, qo‘rquv, azob-uqubat, sabrsizlik, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik yoki achinish kabi salbiy tuyg‘ularidan kelib chiqadigan juda baxtsiz, izolyatsiyalangan holati, boshqa tomondan, insonning ijtimoiy hayoti va turmushini, xatti-harakatlarini chuqur anglash, fikrlarini, qarorlarini oydinlashtiri uchun berilgan vaqt, imkoniyat, boshdan kechirilgan bir fursatdir”².

XX asr zamonaviy koreys nasrining badiiy kashfiyoti Yom Sansopning “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasida o‘z aksini topdi. Hikoyada yozuvchining o‘tkir nigohi, yuksak badiiy saviyasi ko‘zga tashlanadi. Hikoyani o‘qigan o‘quvchi olam-olam ma’nolarni kashf qilish bilan birga hayotiy mazmunga to‘la davr haqiqatidan boxabar bo‘ladi. Muallif hikoyasida mamlakatda olib borilayotgan mafkuraviy siyosat oqibatida umidsizlik ummoniga tushgan, o‘smirlik chog‘ida maktab partasida ko‘rgan tajriba sabab qo‘rquv iskanjasidan chiqa olmayotgan, azob-uqubat, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg‘usi kuchli obraz tasvirlanadi.

Bosh qahramon muallif-personajning o‘zi: mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizlik sababli odamlarga aralashishdan qo‘rqib, yashash joyini o‘zgartirgan qahramon. Vatanining kelajagidan umidsizlikka tushgan, atrofidagi odamlardan nafratlanadigan, jamiyatda kechayotgan voqealardan salbiy ta’sirga uchragan bosh obrazda muallif davr yoshlarining fojiasini ko‘rsatadi.

Jahon adabiyotida XIX asr, koreys adabiyotida esa G‘arb adabiyoti va madaniyati ta’sirida XX asrning ikkinchi o‘nyilligidan boshlab yolg‘izlik masalasiga yondashuv tubdan o‘zgardi. Adabiyotshunos Edvard Engelberg asosli ta’kidlaganidek: “XVIII asr go‘zallik va yolg‘izlikni tenglashtirgan bo‘lsa, XIX asr go‘zallik va yolg‘izlikni qorong‘u ma’noda tasavvur qila boshladi”³. Shu ma’noda, Yom Sansopning “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasida yolg‘izlik motivi ko‘proq qo‘rquv, hadik, tushkun kayfiyat bilan bog‘liq.

Yozuvchi yolg‘izlik masalasini “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasida xorijda tahsil olgan, so‘ng vataniga qaytgan talaba obrazida ochib beradi. “Turar joy sargardonliklari” hikoyasida bu masala Choson (hozirgi Shimoliy Koreya) hududidan kelgan talaba obrazida yanada chuqurlashtiriladi. Umidsizlik ummoniga g‘arq bo‘lgan,

² Қиличева М. Р. Инглиз ва ўзбек адабиётида психологик ҳолатлар талқинида адабий таъсир муаммоси (ёлғизлик мотиви асосида) филол.фанл.б-ча фалс.д-ри. (PhD) дисс.автореф. – Бухоро. 2020. – Б. 12.

³ Engelberg E. Solitude and Its Ambiguities in Modernist Fiction. – London: Palgrave, 2001. – P.72.



moliyaviy ahvoli og‘ir talaba har safar duch kelgan muammo ustida mulohaza qiladi, odamlar orasida o‘ziga xayrixoh inson topilmaganida qabristonga qarab yo‘l oladi:

“O‘ylar girdobida, Chang-gil ko‘chani kesib o‘tar ekan, mudom aylanib yuradigan sokin **qabristonga** qarab yo‘l oldi. Qolaversa, bu yer barcha narsalardan xoli bo‘lib, ortiqcha urinishlarga hojat yo‘q edi. Shu bilan birga bu hudud (qabriston) ilk bor xayolidan o‘tgan fikrlaridan farq qilardi, yaqin atrofdagi talabalar qishlog‘iga o‘xshamasdi”⁴.

Yozuvchining “Xarobalar” guruhiga a‘zo bo‘lgan yillari mana shu hikoyada aks etadi. “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasida qisman o‘zining Yaponiyada tahsil olgan yillarini tasvirlagan adib, “Turar joy sargardonliklari” hikoyasida mamlakatning shimoliy hududlarida istiqomat qilgan zamondoshlarining hayotini badiiy ifoda etadi. O‘lim, zulmat, umidsizlik sabab o‘z yurtida ham qo‘rquv ichida yashayotgan vatandoshlarining yolg‘izlikka mahkumlik sabablarini ochib beradi. Bu bilan yozuvchi “Xarobalar” guruhi a‘zolarining turli vakillari obrazini yaratadi, ularni birlashtirib turgan fikr, o‘ylardan kitobxonni boxabar qiladi. Mamlakatda yoshlar o‘rtasida avj olayotgan “o‘z joniga qasd qilish” sabablarining ichki va tashqi omillariga e‘tibor qaratadi.

“Turar joy sargardonliklari” hikoyasida yozuvchi hikoyada o‘zi Tokioda o‘qib yurgan kunlari tasvirida zamondoshlarining o‘zgarayotgan qiyofasini chizadi, jamiyatda kechayotgan shiddatli davr, xalqini kutayotgan bo‘hronli kunlarni oldindan bashorat qiladi. O‘zga yurtga ilg‘or fikrlarni o‘zlashtirish, koreys xalqi hayotini nurli qilish, katta maqsadlarni ko‘zlab kelgan bosh qahramon turar joy bilan bog‘liq maishiy muammolar girdobidan chiqa olmaydi. Bir qarashda, ikir-chikir bo‘lib ko‘ringan, o‘zgalar e‘tiboriga molik bo‘lmagandek taassurot uyg‘otadigan bu masala aslida koreys yoshlari o‘rtasida chuqur muammo yuzaga kelayotganidan dalolat beradi.

Muallif hikoyasida yolg‘izlik motivi yuzaga kelishi uchun ta’sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar sifatida yapon anneksiyasi davri, ijtimoiy hayotdagi tartibsizliklar, kuchli davlatlar ta’siriga tusha boshlagan jamiyat yoshlarining ongi-shuurini zaharlayotgan tashqi madaniyat, yangi hayotni qabul qilishdek murakkab vaziyat, insonlarning bir-biridan cho‘chiy boshlagani, ishonchsizlik asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Insoniy munosabatlarning darz ketishi, atrofdagilardan qo‘rqish, yashash joyini

⁴염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 264. 쪽.

o'zgartirish, avval tabaqalanish, endi esa "choson kishisi" tamg'asi yoshlarning xudkushlik qilishlariga sabab bo'ldi.

Yozuvchining "Hasratli davr manzarasi" hikoyasida yolg'izlik motivi oilada shaxsiy munosabatlarning darz ketishi tarzida beriladi: "To'satdan yolg'iz erkak sifatida yashash nafaqat noqulay, balki chidab bo'lmas azob va yolg'izlikka mahkumlik edi. Shuning uchun u Pillye bilan tanishganda, bu imkoniyatga xuddi xudoning marhamatidek yopishdi"⁵. Oilada onaning keliniga nisbatan adolatsizligi, erning uyda o'tirgan, yoshi katta bo'lsa-da, hali turmush qurmagan singlisining tazyiqlari sabab yosh kelin ikkita bolasini tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Erkak o'tkir ichimliklar ichish hamda qimor o'yinlariga berilib ketdi. Natijada, u juda katta pul qarz bo'lib qoldi. Qimorxonada Pillye ismli ayol bilan tanishuv esa uni xuddi bu azoblardan qutqaradigandek tuyuldi. Do'stlari: "Yosh beva ayolning hayoti qiyin, lekin yosh erkakning yolg'iz yashashi... senga ham oson emas. Sen to'laqonli oila boshlig'idek yashashing uchun uylantirishimiz kerak!"⁶, deb hazillashishlarida erkakning ruhiy holati ochib beriladi.

"Tajribaxonadagi qurbaqa" hikoyasida yolg'izlanib qolgan bosh qahramon ko'pchilikka aralashishdan, chiroqni o'chirib uxlashdan qo'rqadi. Shu sababli u yashash joyini o'zgartirishni maqsad tutadi, kimsasiz orolmi yoki jahannam, unga farqi yo'q, faqat u yerga inson oyog'i yetmagan bo'lsa yetarli. "Hasratli davr manzarasi" hikoyasi qahramoni esa muhojirlikka ketayotgan ayoliga havasi keladi, o'zining barcha tashvishlarini unutib u bilan birga ketishga qaror qiladi. Ayolining o'zga mamlakatga hamshira sifatida begonalarining bolalarini kuzatib ketayotgani, o'zining farzandlari uchun hatto, g'amxo'rlik ham qila olmasligidan afsuslanadi. Farzandlari bilan birga ayoli ketayotgan davlatga bosh olib ketishni istaydi.

Jahon adabiyotida yolg'izlik motivi asosida yozilgan asarlar juda ham ko'p. Yom Sansop ijodiga tegishli ikki xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchisi, adib ilk bor zamonaviy koreys nasrida yolg'izlik mavzuiga mazkur hikoyasi orqali qo'l urdi, ikkinchisi, Yaponiyada tahsil olish chog'ida yapon adabiyoti bilan yaqindan tanishgan, yapon adibi Arisima ijodidan ta'sirlandi.

⁵염상섭. 두 파산. - 서울: 문학과지성사, 2006. - 413. 쪽.

⁶염상섭. 두 파산. - 서울: 문학과지성사, 2006. - 413. 쪽



“Yolg‘izlik o‘rta asrlarda intizom va ma’naviy yo‘l-yo‘riq dasturi bo‘lgan. G‘arbda ham, Sharqda ham yolg‘iz insonlar – zohidlar, darveshlar kamolotga erishish, yuksalish namunasi bo‘lganligi badiiy adabiyotda aks ettirilgan”⁷.

Darhaqiqat, o‘rta asrlarda yaratilgan Kim Manjun qalamiga mansub ilk koreys romani “To‘qqiz kishining bulutli tushi”da yolg‘izlik motivi aynan insonlar dunyosidan ketib, rohiblik yo‘lini tanlagan, forig‘lanishga, ichki olamini tozartirishga harakat qilgan obraz shakllantirilgan.

XIX asrdan boshlab yolg‘izlik motivi asarlarda boshqa – yangi mazmun kasb eta boshladi. Yangi mazmunda insonning yolg‘izlanishi begonalashuv bilan bog‘liq psixologik holatni aks ettirdi. Shu sababli Yom Sansop hikoyalarida yolg‘izlik umidsizlik, chorasizlik, tolesizlik bilan bog‘liq hodisa shaklida qo‘llanildi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Edvard Engelbergning: “XVIII asr go‘zallik va yolg‘izlikni tenglashtirgan bo‘lsa, XIX asr go‘zallik va yolg‘izlikni qorong‘u ma’noda tasavvur qila boshladi”⁸, degan fikrlari o‘z tasdig‘ini topadi.

Muallif o‘z hikoyasida bosh qahramon yolg‘izligini ko‘rsatishda og‘riq, azob va qo‘rquv kabi metaforadan: “Men vujudimni chulg‘agan **qo‘rquv**dan hatto barmog‘imni ham qimirlata olmasdim”, “...biroq men u o‘chib qolsa, dahshatli xayollar menga **azob** bera boshlashidan qo‘rqardim”; tun, qorong‘ulik kabi tabiat hodisasidan: “...tun bag‘rini yorayotgan tezlik”, “Men **qorong‘u tunda** uxlash uchun yotar, biroq ko‘zimni yumishim bilan janub tomondagi deraza uzra ko‘tarilgan skalpelning yaltirashidan ko‘zlarim qamashar edi”; yolg‘izlikka xos harorat xususiyatlari: “...hatto ko‘chada ketayotib ham tanamdan **sovuq ter chiqar...**”, “...peshonamga **reza-reza ter chiqdi...**” kabilardan unumli foydalangan. Ko‘rinib turibdiki, Yom Sansop metafora, tabiat hodisalari hamda haroratga ramziy ma’no yuklash orqali psixologik tavsir yaratadi. Hikoyada syujetiga kiritilgan barcha voqealar bosh qahramon psixologik olami tasvirida berilgan.

Yom Sansop ijodiga nazar tashlasak, u Yaponiyada o‘qib yurgan vaqtida mustamlakaga qarshi fikr bildira olgan, yurtida 1 mart harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan, mamlakat ozodligi uchun kurashga kirgan. Hikoyada ikki qutb mavjud. Qutbning birinchi tomonida hikoya bosh qahramoni X. – yapon mustamlakasidan

⁷ Қиличева М.Р. Инглиз ва ўзбек адабиётида психологик ҳолатлар талқинида адабий таъсир муаммоси (ёлғизлик мотиви мисолида). филол. фанл. 6-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф... – Бухоро. 2020. – Б. 14.

⁸ Engelberg E. Solitude and Its Ambiguities in Modernist Fiction. – London: Palgrave, 2001. – P. 72.



charchagan, kurashga ishtiyoqi ham qolmagan koreys jamiyatining tipik vakili. U nafaol, ruhan cho'kkan, pessimist inson. Uning faqat sharob ichish va tamaki chekishdan boshqa qiladigan ishi yo'q. U o'zidagi bu illatlardan xalos bo'lish haqida o'ylamaydi, yolg'izlikdan qutilish, jamiyatga qo'shilish, nafi tegadigan ishlar bilan shug'ullanish – bularning barchasi behuda ishlar. Bu holatni muallif holati bilan qiyoslash mumkin: Yaponiyada tahsil olib kelgan, yangi bilimlar asosida qayta shakllangan o'smir mamlakatida mustamlakachilik tazyiqi ostida hech qanday ish qilib bo'lmasligiga, har qanday harakat 1 mart harakatlari kabi samarasiz bo'lishiga amin bo'lgan.

Adib hikoyalarida g'ururi toptalgan yoshlarning hayotga nisbatan nafrati kuchaydi. Ruhiy azob ularning jamiyatdan begonalashuviga sabab bo'ldi. "Yilning so'ngi tuni" hikoyasi qahramoni tartibsiz hayotiga chek qo'yish, barcha narsalarni unutish uchun may ichsa, "Tajribaxonadagi qurbaqa" hikoyasi qahramoni xotirasida mustahkam o'rnashib qolgan qattiq qo'rquv sabab sharob iste'mol qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қиличева М. Р. Инглиз ва ўзбек адабиётида психологик ҳолатлар талқинида адабий таъсир муаммоси (ёлғизлик мотиви асосида) филол.фанл.б-ча фалс.д-ри. (PhD) дисс.автореф. – Бухоро. 2020.
2. Ҳамдамов У. Ёлғизлик. – Т: "Янги аср авлоди", 2019.
3. Engelberg E. Solitude and Its Ambiguities in Modernist Fiction. – London: Palgrave, 2001.
4. 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006.